

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA BILISH JARAYONLARINI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI**

*SURXONDARYO VILOYATI SARIOSIYO
TUMANI 9- SONLI MAKTAB PSIXOLOGI
RAVSHANQULOVA LATOFAT ABDUJALILOVNA*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida bilish faoliyatini tashkil etish, ushbu jarayonda amalga oshiriladigan ishlar hamda bu ishlarning psixologik xususiyatlari bayon etilgan. Xususan, ta'lim jarayonidagi psixologik vaziyatlar sifat va samaradorlikka nechog'lik ta'sir ko'rsatishi, jarayonning sifatli tashkil etilishidagi o'rni ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Psixologik, shaxs, uzviylik, izchillik, ta'lim, jarayon, bilish, subyekt, motiv, muloqot, axloqiy motiv, bilish motivi, hissiy bilish.

KIRISH

O'zbekiston hozirgi davrda ta'limda, shu jumladan, psixologiya fanida ham chuqur islohotlarni boshdan amalga oshirmoqda. Bunday sharoitda mustaqil fikrlovchi, islohotlarda faol ishtirok etuvchi, kasbiy tayyorgarligi talab darajasida bo'lgan shaxsni shakllantirish, ushbu jarayon samaradorligini ta'minlash ham yoshlarning tarbiyasi va umumiy kasbiy tayyorgarligiga, ularning ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini chuqur o'rganish holatiga bog'liqdir. Bu holatda, birinchi navbatda, yoshlarning kasbiy tayyorgarligini yuksaltirishda ma'naviy, axloqiy, psixologik ta'sir vositalarining ahamiyati kattadir. Shaxs kasbiy kamolotini ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy, psixologik yo'nalishdagi tadbirlarni amalga oshirish, ularni modernizatsiyalashayotgan jamiyatda yuqori malakali shaxs sifatida tayyorlash, insoniylik, bag'rikenglik kabi xislatlarni, yangi demokratik qadriyatlarning mazmunini yoshlarga tushintirish zaruriyati bilan ham izohlanadi.

Asosiy qism

Ta'lim sohalarning modernizatsiyalashuvi uzluksiz ta'lim taraqqiyoti va shaxsning kasbiy faoliyati yetukligi, axloqiy barkamolligi, kasbiy psixologik xususiyatlarining shakllanishi masalalari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu jarayonda shaxs kasbiy kamolotining mavjud imkoniyatlardan, ma'naviy ma'rifiy, axloqiy, psixologik yo'nalishdagi tadbirlardan samarali foydalanish, kasbiy kamolot sari intilishining psixologik jihatlarini yanada takomillashtirish masalasi nazariy, amaliy ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ta'lim jarayonida rivojlanishi to'g'risida to'xtalar ekan, amerikalik psixolog Dj.Bruner shunday yozadi: "Biz fanlarni dunyoga kichik jonli kutubxonalarni keltirish uchun emas, balki o'quvchining o'zini matematik fikrlash, muammolarni tarixchi misoli o'rganish, bilim olishda ishtirok etishga

o'rgatish uchun o'qitamiz. Bilish – bu jarayon, mahsul emas". Bilamizki, bilish faoliyatining subyekti o'quvchi hisoblanadi. Shuning uchun ijtimoiypedagogik asoslarga ega bo'lgan ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga, o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilarga munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari ta'lim jarayoni, o'qitish, ta'lim berishda o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratishgan. Jumladan, Ibn Sino ta'lim jarayoni haqida gapirar ekan, ta'limda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi: - bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'yimaslik - ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish; - olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi; - o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish; - bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; - o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish; - o'quvchini zeriktirmaslik; - bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik; - uzviylik, izchillik; - yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish kerakligini uqtiradi. Ushbu fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, ta'lim jarayoni o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarning boy tajribasini, insoniyatni asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonidagi yutuqlarga erishish shart hisoblanadi. Ushbu fikrlar o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishda o'z aksini topmog'i lozim. O'qituvchining faoliyati o'quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishda katta imkoniyatlar yaratadi. Aniqrog'i, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi, o'quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tahlil qiladi. O'z navbatida o'quvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, malaka hamda ko'nikmalarni egallashga, o'zini jamiyatda foydali faoliyatgatayyorlashga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda katta yordam beradi.

Odatda, ta'lim jarayonida o'qishga qiziqishga katta ahamiyat beriladi. O'quv materiali mazmunining obyektiv imkoniyatlari roli qanchalik katta bo'lmasin, baribir o'quvchining bevosita faolligi uning bilishga qiziqishini kuchliroq rag'batlaydi. Biroq bir tomondan, fan, texnika, madaniyatning tezkor taraqqiyoti, ikkinchi tomondan, axborotlarning tabora globallashib borishi, boshqa tomondan, bugungi o'sib kelayotgan avlodning har jihatdan erta rivojlanishi – akseleratsiya o'quv jarayoniga shunday yondashishni talab etmoqdaki, bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning yangi

materialni mustaqil o'zlashtirish istagi kabi imkoniyatlarni rivojlantirishga qaratiladi. Rag'batlashning bu turiga o'quvchilar mustaqil ishlarining xilma-xil shaklini, ularning bilish faoliyatining yangi usullarini egallash, ta'limda muammolilik, fan metodlariga jalb etishni o'z ichiga tadqiqotchilik elementlari, turli ijodiy va amaliy ishlarni kiritamiz. Mustaqil ishlarining xilma-xilligi va shakllari almashib turishi o'quvchilar faolligini rag'batlashi isbotlab berilgan. Biroq o'quv materiali mazmuni malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida mustaqil ishning qandaydir bitta shakli uzoq muddat qo'llanishini talab qilgani bois bu stimuldan hamma vaqt ham foydalanib bo'lmaydi. Ko'pincha, masala yechish (fizika, kimyo, matematika) jarayonida o'quvchilar yechish algoritmini o'zlashtiradilar. Yechish usullarini o'rganish, shubhasiz, zarur. Biroq bu holda harakatlar takrorlanuvchanligi bilishga qiziqishni mustahkamlash yo'lida g'ov bo'lishi mumkin. Bunday bo'lmasligi uchun esa harakat vaziyati, o'qituvchi bilish vazifasi va uni hal etish jarayoniga munosabati, yaratgan holat bilan bog'liq stimullar muhim. O'quvchilarning bilish faolligini oshirishda darsda o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatlaridan kelib chiqadigan rag'batlash ham alohida ahamiyatga ega. Gnoseologik va ijtimoiy nuqtayi nazardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ta'lim o'quvchilarning bilishga qiziqishiga bevosita ta'sir etadigan munosabatlar bilan bog'liq. O'qituvchining pedagogik ishontira bilish qobiliyati bilishga qiziqish rivojiga kuchli turtki beradi. O'quvchiga, uning bilish imkoniyatlariga ishonish psixologiyada ham, maktab amaliyotida ham isbotlanganiday, nafaqat o'quvchining bilishga qiziqishi, balki uning ma'naviy rivojlanishi uchun ham rag'batdir. Har qanday fan sohasi o'ziga xos obyektga va predmetiga va ularga mos keladigan tadqiqot yoki amaliy o'rganish metodlariga, o'z tamoyillariga egadir. Psixologik-pedagogik diagnostikada qo'llaniladigan metodlar va tamoyillar hozirgi zamon psixologiya fani va pedagogika fanida orttirilgan ilmiy, amaliy tajribalar, shakllangan tamoyillar asosida shakllanmoqda. Shu bilan birga, o'z xususiyatlariga ega hamdir. Buning sababi psixologik-pedagogik diagnostik qo'llaniladigan metodlar va tamoyillar fanda biror yangilik ochishdan ko'ra ko'proq mavjud bilimlar, metodlar, tamoyillarning amalda samarali qo'llanilishiga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, psixologik-pedagogik diagnostikaning quyidagi tamoyillarini ko'rsatib o'tish mumkin: Xulosa: Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quv jarayoni yaxlit va, hatto, har bir dars o'quvchilarning bilishga, turli sinf va fanlarda namoyon bo'lish xarakteriga ko'ra rag'batlar turli xil bo'ladi. Rag'batlarning bir xil tuzilishga egaligi, o'zaro bog'liqligi bilishga qiziqishni mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat etadi, shaxsning bilish kuchlari, uning fikrlash, irodaviy, hissiy-bilish jarayonlari faollashini ta'minlaydi. Har bir darsda bilishga qiziqish o'zining avj nuqtasi, o'zining ko'rsatkichiga ega, o'qituvchi buni ko'rishi, diqqat bilan tahlil qilishi muhim, zero bu umumiy ma'noda darsning samaradorligi ko'rsatkichidir. O'quvchilarning bilishga qiziqishlarini tobora istiqbolli

yoʻnalishi qiziqishning dars boshidan to oxirigacha izchil oʻsib borishidir, bunda oʻquvchilar ishga berilib qoʻngʻiroqni eshitmaydi va darsdan oʻquv jarayonida qilib ulgurmaganini davom ettirish istagi bilan ketadilar. Dars jarayonida bilishga qiziqishning asta-sekin susayib borishi uni ragʻbatlantirmaydi, balki soʻndiradi va har safar qiziqtirishni boshidan boshlash lozim boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umedjanova M. L., Salikhov S. M., Salikhov T. M. The Role of National Education in Preparing Young People for Family Life //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T.2. – №.
2. – С. 271-276. 2. Салихов Т. и др. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
3. Salixov S. M., Salixov T. M. Boʻlajak jismoniy madaniyat oʻqituvchisining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 1013- 1019.4.
4. Salixov S. M. et al. Musobaqa oldi sportdagi stress va tayyorgarlikning psixologik tomonlari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1039-1044.